

O'ZBEK TILIDA POLISEMANTIK FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

Abdumusayeva Zilola

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Lingvistik o'zbek tili yo'nalishi magistranti

Anotatsiya: Ushbu tadqiqotda o'zbek tilidagi polisemantik frazeologizmlarning lingvomadaniy jihatlarini o'rganilgan. Frazeologik birliklarning ko'p ma'nolilik xususiyati, ularning xalqning milliy mentaliteti, qadriyatlarini va tarixiy-madaniy tajribasi bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotda polisemantik frazeologizmlarning nutqdagi qo'llanishi, ularning madaniy kod sifatidagi o'rni va boshqa tillardagi (ingliz va rus) mos birliklar bilan qiyosiy tahlili yoritilgan. Olingan natijalar lingvomadaniyatshunoslik, tarjima nazariyasi va frazeologiya sohalarida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: polisemantik frazeologizm, lingvomadaniyat, frazeologiya, milliy mentalitet, qiyosiy tahlil.

Annotation: This research examines the linguocultural aspects of polysemantic phraseological units in the Uzbek language. It analyzes the polysemy of phraseological expressions and their connection to the national mentality, values, and historical-cultural experience of the people. The study explores the usage of polysemantic phraseologisms in speech, their role as cultural codes, and provides a comparative analysis with their English and Russian equivalents. The findings are scientifically and practically significant for linguocultural studies, translation theory, and phraseology.

Keywords: polysemantic phraseologism, linguoculture, phraseology, national mentality, comparative analysis.

Аннотация: В данном исследовании рассмотрены лингвокультурные аспекты полисемантических фразеологизмов узбекского языка. Анализируется многозначность фразеологических единиц, их связь с национальным менталитетом, ценностями и историко-культурным опытом народа. Исследование освещает использование полисемантических фразеологизмов в речи, их роль как культурного кода, а также проводит сопоставительный анализ с эквивалентами в английском и русском языках. Полученные результаты имеют научное и практическое значение для лингвокультурологии, теории перевода и фразеологии.

Ключевые слова: полисемантический фразеологизм, лингвокультура, фразеология, национальный менталитет, сопоставительный анализ.

Polisemantik frazeologizmlarning lingvomadaniy tadqiqi mavzusi frazeologik birliklarning ma’no jihatidan ko’p qirraliligini o’rganishga qaratilgan ilmiy yo’nalishdir.

Frazeologizm deb nimaga aytiladi frazeologizm o’zi nima degan shu o’rinda savol tug’iladi. Frazeologizm -bu xalqning madaniyati, tarixi va dunyoqarashi bilan uzviy bog’liq bo’lgan til birligi bo’lib ko’pincha bir vaqtning o’zida bir nechta ma’noni ifodalaydi. Frazeologizmlarda kki yoki undan ortiq so’zning barqaror birikmasidan iborat bo’lib nutqgacha tayyor holda bo’lishi lozim va tarkibidagi so’zlar o’z ma’nosida ifodalanmagan leksema kabi bir hodisani atay olishi kerak.

Frazeologizmlarda qat’iy tartibda bo’ladi va ularni o’zgartirib yoki almashtirib bo’lmaydi. **Masalan** ,”ko’z quloq bo’lmoq”bu yerda so’z tartibini yoki so’zlar o’rniga boshqa so’zlarni qo’llasak ma’no o’zgaradi.

Polisema-bu bitta so’zning bir nechta ma’noga ega bo’lish hodisasidir. Bu hodisa o’llo

Masalan “yo’l”so’zini misol qilib olsak bu yerda to’g’ridan to’g’ri o’z ma’nosi harakatlanish uchun mo’ljallangan maydon ko’chma ma’noda esa hayotdagi yo’nalish yoki qaror , hayotda o’z yo’lingni top ma’nolarida qo’llangan.

Endi **polisemantik frazeologizmlarga** kelsak -bu ma’no jihatidan ko’p qirrali turli gaplarda birdan ortiq ma’noni ifodalay oladigan gaplarda qo’llanilganda o’z ma’nosi va ko’chma manosi ega ko’pincha turli vaziyatlarda bir -biridan farq qiluvchi yoki o’zaro bog’liq bo’lgan bir nechta ma’noni bildirishi bilan ajralib turadi.

Polisemantik frazeologizmlarning ahamiyatli jihati shundaki tilni boyitib ifodalilikni kuchaytiradi madaniyat va dunyoqarashni aks ettiradi frazeologizmlarning ma’nolari xalqning urf-odati qadriyatlari va hayot tarzi bilan bog’liq.

Polisemantik frazeologizmlarni yuzaga chiqishi turli madaniy va ijtimoiy narsalarga bog’liq ulartilning rivojlanishi tarixning rivojlanishi xalqning dunyoqarashi ijtimoiy hayotdagi o’zgarishlar natijasida polisemantik frazeologizmlar yuzaga chiqadi.

Masalan lingvomadaniy tahlil qiladigan bo’lsak xalqning turmush tarzi urf-odatlaridan kelib chiqib “**Dasturxon keng**” bunda o’sha xalqqa tegishli bo’lgan va aholisi uchun tushunarli bo’lgani uchun ham quyidagi ma’nolarda keladi. Balki ushbu misolni yani “dasturxon keng ” misolini boshqa bir tilda boshqa bir davlatda lingvomadaniy jihatdan yondashsa umuman mazmun mohiyati o’zgarib ketishi mumkun.

asosiy ma’no; dasturxonning o’lchami

ko’chma ma’no ; mehmondo’sstlik ma’nosida qo’llaniladi.

Misol uchun “**Boshi aylandi**” frazeologizmi O’zbek tilida ko’p qirrali ya’ni polisemantik ma’noga ega bo’lgan iboralar qatoriga kiradi.

”Boshi aylandi” iborasining polisemantik ma’nolarini ko’rib tahlil qilib chiqamiz;

1.Jismoniy ya’ni fizialogik holatni ifodalash bu holat o’z ma’noda qo’llangan qolganlari esa ko’chma ma’noda qo’llangan.

Ma’nosi; boshning aylanishi yoki tananing o’z muvozanatini yo’qotishi

Misol; ”U shunchalik yo’lda charchadiki ostonada boshi aylanib o’tirib qoldi.”

2.Ruhiy hayajonlanish yoki qattiq ta’sirlanish;

Ma’nosi; biror voqea yoki habar natijasida hayratlanish yoki tasirlanganda.

Misol; ”Yangi xushxabarni eshitib, uning boshi aylanib ketdi.”

3.Manmanlik yoki o’zidan ketish holatida

Ma’nosi; kibirli bo’lib qolish yoki haddan ziyod o’ziga bino qo’yish mensimaslik.

Misol; ”Mansabi ko’tarilgandan keyin boshi aylanib hech kimni tanimay qoldi.”

4.Chalkashlik yoki hayratlanish holatida.

Ma’nosi; ko’p yangiliklardan hayratlanish yoki boshqaruvni yo’qotish.

Misol; ”To’y tayyorgarliklaridan boshi aylanib ketdi.”

Mana ko’rishimiz mumkinki bitta frazeologizmning to’rt xil ma’noda ya’ni polisemantik frazeologizm ekanligiga amin bo’ldik bunday polisemantik frazeologizmlar juda ko’p har birini ichiga kirib ularni polisemantik tomonini o’rganilsa juda ko’p ma’nolari kelib chiqadi.